
Yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limi tavsiyasiga ko'ra, ikki nafar yoshlar yetakchilari yangi lavozimda ish boshladilar

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yoshlar kuni" munosabati bilan "Yangi O'zbekiston" bog'ida tashkil etilgan tantanali tadbirdagi nutqida "Yosh rahbar kadrlar zaxirasi" shakllantirilib, uning 30 foizi yoshlar yetakchilari hisobidan to'ldiriladi. Men yoshlar yetakchilari timsolida bo'lajak hokimlar va vazirlarni, yirik bank va kompaniyalar, davlat va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar liderlarini ko'raman!", - deya ta'kidlagan edilar.

Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlaridagi yoshlar yetakchilari mas'uliyatli vazifalarga tavsiya etilmoqda.

Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona shahar bo'limining tavsiyasiga binoan Farg'ona shahar "Ipak yo'li" mahallasining yoshlar yetakchisi Ravshanjon Turdialiyev O'zbekiston tumani, "Ibn Sino" mahallasining yoshlar yetakchisi Elyorjon Nurmatov esa Toshloq tumani Ichki ishlar bo'limi inspektor-psixologi vazifasiga tayinlandilar.

2022-07-01 19:59:41